



UDK: 351.84:327.56(575.1)

Qobil Q. SHOIMOV,

Magistrant (MPA), mustaqil tadqiqotchi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: muhammadnavfal@gmail.com, ORCID: 0009-0001-5913-9045

Tarix fanlari doktori O.Ostonov taqrizi asosida

SOCIAL SECURITY AND STATE BUILDING: CONCEPTUAL FOUNDATIONS AND THE CASE OF UZBEKISTAN

Annotation

The article analyzes social security at the intersection of human security theory, social policy and state building. The purpose is to operationalize social security as an independent analytical category in political science and to assess its institutional potential in the context of reforms in Uzbekistan. The article proposes a national concept of social security, a system of indicators and mechanisms for civic and expert participation.

Key words: social security, human security, social state, social policy, social protection, state building, Uzbekistan-2030.

СОЦИАЛЬНАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И ГОСУДАРСТВЕННОЕ СТРОИТЕЛЬСТВО: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ И ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В статье социальная безопасность рассматривается на пересечении теории человеческой безопасности, социальной политики и государственного строительства. Цель исследования состоит в операционализации социальной безопасности как самостоятельной аналитической категории политической науки и в оценке ее институционального потенциала в контексте реформ в Узбекистане. Предложены национальная концепция социальной безопасности, система индикаторов и механизмы гражданского и экспертного участия.

Ключевые слова: социальная безопасность, человеческая безопасность, социальное государство, социальная политика, социальная защита, государственное строительство, «Узбекистан - 2030».

IJTIMOYIY XAVFSIZLIK VA DAVLAT QURILISHI: KONSEPTUAL ASOSLAR HAMDA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiy xavfsizlik tushunchasi inson xavfsizligi nazariyasi, ijtimoiy siyosat va davlat qurilishi kesishmasida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi ijtimoiy xavfsizlikni siyosatshunoslikning mustaqil analitik toifasi sifatida operatsionallashtirish hamda O‘zbekiston islohotlari tajribasida uning institutsional imkoniyatlarini baholashdan iborat. Maqolada milliy ijtimoiy xavfsizlik konsepsiyasi, indikatorlar tizimi hamda fuqarolik va ekspert ishtirokini kuchaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy xavfsizlik, inson xavfsizligi, ijtimoiy davlat, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya, davlat qurilishi, “O‘zbekiston - 2030”.

Kirish. XX asr oxiri jahonda xavfsizlik yondashuvlari tub burilishlarga yuz tutdi: “sovuq urush” davridan hukmron bo‘lgan davlat-harbiy xavfsizlik modeli shaxsni, jamiyat va kundalik turmush barqarorligini xatarlardan asrash kabi yo‘nalishlar bilan to‘ldirildi. Inson xavfsizligini iqtisodiy, oziq-ovqat, sog‘liqni saqlash, ekologik, shaxsiy, jamoaviy va siyosiy o‘lchovlarning yaxlit majmui sifatida talqin qilgan BMTning “Inson taraqqiyoti to‘g‘risidagi ma‘ruza”si 1994-yilda e‘lon qilingan edi [1]. Bunday qarashning yuzaga kelishi xavfsizlik referent obyektini davlatning mutloq manfaatlaridan shaxs va jamiyatning ehtiyojlariga tomon ko‘chganligini anglatadi.

Ijtimoiy xavfsizlik konsepsiyasi ushbu nazariy burilishning ijtimoiy siyosat bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘nalishi hisoblanadi. U ijtimoiy ta‘minotga oid nafaqa, kompensatsiya kabi yordam tizimini emas, balki ishsizlik, kambag‘allik, tengsizlik, mehnat migratsiyasi hamda ijtimoiy birdamlikning zaiflashuvi, sog‘liq va ta‘lim xizmatlaridan foydalanishdagi cheklovlar kabi tahdidlarga nisbatan preventiv siyosiy-institutsional choralarini o‘z ichiga oladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy xavfsizlik ijtimoiy himoyaga qaraganda kengroq ma‘no kasb etgani holda, inson xavfsizligiga oid barcha sohalarini qamrab oladigan haddan tashqari umumiy kategoriya emas.

Mavzuning dolzarbligini O‘zbekiston uchun quyidagi uch omil orqali kuzatish mumkin:

Yangi hukumat 2017-yilgi islohotlar orqali ilgari surgan “xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” mazmunidagi siyosiy yondashuv asosida davlat xizmatining bosh maqsadi inson manfaatlariga qaralishi [9];

O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida maqomga ega bo‘lishi [10];

O‘zbekistonga qabul qilingan 2017-2021-yillardagi Harakatlar strategiyasi, 2022-2026-yillardagi Taraqqiyot strategiyasi hamda yangilangan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi kabi fundamental hujjatlar bandlik siyosati, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni qisqartirish, ta‘lim va sog‘liqni saqlashdagi innovatsiyalar bo‘yicha aniq indikatorlar orqali amalga oshiriladigan boshqaruvni jadallashtirdi [11; 12; 13].

Siyosatshunoslikda “ijtimoiy xavfsizlik” kategoriyasining chegaralarini aniqlashtirish, uning shunga o‘xshash tushunchalardan farqli jihatlarini ko‘rib chiqish hamda O‘zbekiston davlat muassasalari va institutlarining ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlash imkoniyatlarini baholash ushbu tadqiqotning maqsadi hisoblanadi. Maqsadga erishish uchun

esa shaxs xavfsizligi va ijtimoiy xavfsizlik bo'yicha asosiy nazariy konsepsiyalarni tizimlashtirish; ijtimoiy xavfsizlikni ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya va sotsietal xavfsizlikdan farqli jihatlarini aniqlash; O'zbekiston islohotlarini konseptual mezonlar asosida tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish kabi vazifalar ko'nyildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Inson xavfsizligi to'g'risidagi tadqiqotlarda ikki yirik yondashuv ajralib turadi. Birinchisi, xavfsizlikni "qo'rquvdan ozodlik", ya'ni qurolli zo'ravonlik, inson huquqlarining qo'pol ravishda buzilishi va harbiy mojarolardan himoya qilish bilan bog'laydigan minimalistik yondashuv. Ikkinchisi esa maksimalistik yondashuv hisoblanib, u xavfsizlik masalasi sifatida insonni "muhtojlikdan ozod" bo'lishini ham qamrab oladi, shuningdek, iqtisodiy beqarorlik, kasallik, ocharchilik, ekologik xavf va ijtimoiy istisno qilinishni tadqiq etadi [1; 2; 3].

Inson xavfsizligi tushunchasining haddan tashqari kengayishi, R. Parisning fikricha, analitik aniqlikni yo'qotishi mumkin [4]. Konstruktivistik nuqtai nazarni ilgari surgan E. Newman esa inson xavfsizligi barcha davlatlar uchun bir xilda bajariladigan tayyor yo'riqnoma bo'lmasdan, alohida bir davlatning manfaatlar va xalqaro identiklik bilan qayta talqin qilinishini ta'kidlaydi [5]. Ba'zida davlatlar jozibador g'oya sifatida "inson xavfsizligi" iborasini qo'llay boshlasada, lekin amalda avvalgi amalga oshirgan ishlarini davom ettiradi. Aslida bu muammoning siyosiy ahamiyatini oshirish maqsadini ko'zlashi kerak. O'z tanqidiy yondashuvida K. Krause aynan inson xavfsizligi diskursi ba'zan ilgari mavjud bo'lgan siyosiy amaliyotlarni qayta nomlashga xizmat qilishini qayd etgan [6]. Shu o'rinda u yana bir muhim muammoni ko'rsatadi: agar inson farovonligini pasaytiradigan barcha hodisalar xavfsizlik tahdidi deb e'lon qilinsa, "inson xavfsizligi" tushunchasi haddan tashqari kengayib ketadi. Natijada tushuncha aniq siyosiy ustuvorliklarni belgilash imkoniyatini yo'qotadi. Bunday mulohazalar esa ijtimoiy xavfsizlikni aniq predmet, tahdid va indikatorlar asosida chegaralash zarurligini ko'rsatadi.

B. Buzan, O. Wæver va J. de Wilde tomonidan ishlab chiqilgan Kopengagen maktabi nazariyasida xavfsizlikning sotsietal sektoridagi markaziy tushuncha identiklik hisoblanadi [7]. Jamoa tomonidan biror siyosiy, madaniy yoki demografik jarayonni o'zining mustaqil jamoa sifatida davom etishiga xavf deb qabul qilganida sotsietal xavfsizlikka tahdid yuzaga keladi. Bundan farqli ravishda ijtimoiy xavfsizlik inson yoki jamoaning kim ekanligini emas, balki ularning munosib hayot kechirish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun kerak bo'ladigan savollarga ko'proq e'tibor qaratadi. Shundan kelib chiqqan holda, unga ijtimoiy siyosat va xavfsizlik tadqiqotlari o'rtasida bog'lovchi siyosatshunoslik kategoriyasi sifatida qarashimiz mumkin.

M. Finnemore va K. Sikkinklarning norma diffuziyasi haqidagi yondashuvi insonning keng ma'nodagi ijtimoiy himoyasi sifatida ko'rib, ijtimoiy xavfsizlikning davlat siyosatiga qanday kirib borishini tushuntirish uchun muhimdir: dastlab "norma tashabbuskorlari" tomonidan ilgari suriladigan xalqaro normalar, davlatning siyosiy institutlari qabul qilishi bilan davom etib, ichki boshqaruv amaliyotida odatiy mezonga aylanishi bilan o'z takomiliga erishadi [8]. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat aynan "ijtimoiy xavfsizlik" nomi ostida hali mustaqil strategik hujjat sifatida to'liq rasmiylashmagan bo'lsa-da, mazkur g'oyaning alohida tarkibiy qismlari turli qonunlar, strategiyalar, dasturlar va davlat institutlarida allaqachon mustahkamlanganligi inson

1-jadval. Ijtimoiy xavfsizlik va yondosh toifalarning chegaralanishi

Mezon	Ijtimoiy siyosat	Ijtimoiy himoya	Ijtimoiy xavfsizlik	Sotsietal xavfsizlik
Himoya obyekt	Farovonlik va ijtimoiy rivojlanish	Zaif guruhlarning daromadi va ehtiyojlari	Shaxs, oila va guruhlarning barqaror ijtimoiy faoliyati	Jamoaning kollektiv identifikatsiyasi

qadri, kambag'allikni qisqartirish va manzilli xizmatlar siyosatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbek olimlaridan I.I. Boboqulov shaxs xavfsizligini shaxs huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqaruvchi shart-sharoitlar majmui sifatida ta'riflab, unga tahdid qatoriga ishsizlik, iqtisodiy imkoniyatlarning notekis taqsimlanishi va atrof-muhit degradatsiyasi kiritiladi; Kopengagen maktabi sekuritizatsiya konsepsiyasi orqali esa muayyan ijtimoiy muammo subyektlararo muloqot va auditoriya roziligi bilan tahdid maqomini olishini izohlaydi [14]. Bu qarashlar ijtimoiy zaifliklarni xavfsizlik predmeti sifatida ko'rish va tarqoq sektorlarni yagona xavfsizlik kun tartibiga ko'tarish zaruriyatini asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot sifatli siyosatshunoslik tahlili asosida bajarildi. Birlamchi manbalar sifatida BMTTDning 1994-yilgi ma'ruzasi, Inson xavfsizligi bo'yicha komissiya hisobotlari, BMT Bosh Assambleyasining A/RES/66/290 rezolyutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi va yangilangan "O'zbekiston - 2030" strategiyasiga oid normativ hujjatlar tanlandi [1; 2; 3; 10; 11; 12; 13].

Metodologik yo'l uch bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda konseptual tahlil yordamida "inson xavfsizligi", "ijtimoiy siyosat", "ijtimoiy himoya", "ijtimoiy xavfsizlik" va "sotsietal xavfsizlik" tushunchalarining mazmuniy chegaralari ajratildi. Ikkinchi bosqichda qiyosiy-institutsional tahlil orqali xalqaro konsepsiyalar O'zbekistonning normativ-siyosiy amaliyoti bilan solishtirildi. Uchinchi bosqichda hujjatlarining sifat tahlili asosida ijtimoiy xavfsizlikni baholash mezonlari ishlab chiqildi: himoya obyekt, tahdid turi, instrumentlar, indikatorlar, idoralararo muvofiqlashtirish va jamoatchilik ishtiroki.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, u keng statistik modellashuv yoki so'rovnomaga emas, normativ hujjatlar va nazariy adabiyotlarning analitik talqiniga tayanadi; shu bois xulosalar konseptual va institutsional tavsiyalar sifatida ilgari suriladi. Validlik manbalarning rasmiyligi va tushunchalarning aniq chegaralanishi orqali ta'minlandi.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy xavfsizlikning operatsional chegaralari

Tahlil shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xavfsizlikni siyosatshunoslik nuqtai nazaridan quyidagicha ta'riflash mumkin: ijtimoiy xavfsizlik - shaxs va ijtimoiy guruhlarning munosib hayot kechirishi, ijtimoiy ishtiroki va barqaror faoliyatiga tahdid soluvchi tizimli ijtimoiy xatarlarning oldini olish, ularni kamaytirish va oqibatlarini kompensatsiya qilishga qaratilgan siyosiy qarorlar, institutsional mexanizmlar, huquqiy kafolatlar va jamoatchilik nazorati majmuidir. Bu ta'rif xavfsizlikni faqat favqulodda holat bilan bog'lamaydi, balki kundalik ijtimoiy zaifliklarni ham boshqaruv masalasi sifatida ko'radi.

Ijtimoiy xavfsizlikning o'ziga xosligi uch jihatda namoyon bo'ladi. Birinchidan, uning referent obyekt faqat davlat emas, shaxs, oila, zaif guruhl va mahalla darajasidagi jamoalardir. Ikkinchidan, tahdidlar harbiy emas, balki qashshoqlik, ishsizlik, ijtimoiy xizmatlarga teng kirish imkoniyatining cheklanishi, migratsion zaiflik va ijtimoiy birdamlikning pasayishi kabi omillardir. Uchinchidan, instrumentlar repressiv emas, preventiv-kafolatlovchi xususiyatga ega bo'lib, xizmatlar, sug'urta, manzilli yordam, bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash va fuqarolik ishtirokini o'zaro bog'laydi.

Mezon	Ijtimoiy siyosat	Ijtimoiy himoya	Ijtimoiy xavfsizlik	Sotsietal xavfsizlik	
Tahdidlar	Rivojlanishdagi nomutanosibliklar	Qashshoqlik, qarilik, ishsizlik	kasallik,	Tizimli zaiflik, tengsizlik, migratsion va hududiy xatarlar	Migratsiya, assimilyatsiya, madaniy eroziya
Asosiy instrument	Dasturlar va resurslarni taqsimlash	Nafaqa, kompensatsiya	sug'urta,	Preventiv kafolatlar, indikatorlar, idoralararo muvofiqlashtirish	Identiklikni sekyuritizatsiya qilish

Manba: muallif tomonidan [1-8] adabiyotlar asosida tuzilgan.

O'zbekiston islohotlarida ijtimoiy xavfsizlik elementlari

O'zbekistonda ijtimoiy xavfsizlik mustaqil konsepsiya nomi bilan emas, balki ijtimoiy davlat, inson qadri va strategik rivojlanish indikatorlari orqali shakllanmoqda. Harakatlar strategiyasi davrida davlat boshqaruvining xalq bilan muloqoti, ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholi bandligi va ijtimoiy himoyani kuchaytirish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi [11]. 2022-2026-yillardagi Taraqqiyot strategiyasida esa ijtimoiy himoya va kambag'allikni qisqartirish inson manfaatlariga yo'naltirilgan siyosatning tarkibiy qismi sifatida belgilandi [12].

2023-yilgi Konstitutsiyada "ijtimoiy davlat" tamoyilining mustahkamlanishi ijtimoiy xavfsizlik uchun konstitutsiyaviy asos yaratdi. Bu tamoyil davlatning faqat tartibni saqlovchi institut emas, balki insonning munosib hayoti va ijtimoiy adolat uchun mas'ul subyekt ekanini anglatadi [10]. Prezident Sh. Mirziyoyev asarlarida ilgari surilgan "inson manfaatlari - hammasidan ustun" va davlat organlarining xalqqa xizmat qilishi haqidagi g'oyalar mazkur konstitutsiyaviy burilishga siyosiy-ma'naviy asos bo'ldi [9].

2026-yilgi PF-21-son Farmon bilan yangilangan "O'zbekiston - 2030" strategiyasida natijadorlik ko'rsatkichlarini aniqlash, ularni raqamli platforma orqali monitoring qilish va vazirlik-idoralarning mas'uliyatini KPI tarzida belgilash mexanizmlari kuchaytirildi [13]. Strategiyada ijtimoiy xizmatlar kutish muddatini qisqartirish, ijtimoiy karta bilan qamrovni kengaytirish, nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash, inklyuziv ta'lim va bolalar himoyasi kabi yo'nalishlar ijtimoiy xavfsizlikning amaliy indikatorlariga yaqinlashadi [13].

Shu bilan birga, mazkur elementlar hali yagona "ijtimoiy xavfsizlik" ramkasida birlashtirilmagan. Amaldagi hujjatlarda sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik, ijtimoiy himoya, mahalla va migratsiya siyosati ko'pincha alohida sektorlar sifatida yuritiladi. Ijtimoiy xavfsizlik esa ushbu sektorlarni umumiy xavf mantiqi - ya'ni shaxs va guruhlarining zaiflashuvini oldindan ko'rish, oldini olish va boshqarish - asosida integratsiya qilishni talab qiladi.

Asosiy cheklovlar va xavf zonalari

Birinchi cheklov - konseptual uzilishdir. Ijtimoiy himoya bo'yicha institutlar kuchayib borayotgan bo'lsa-da, ijtimoiy xavfsizlikning referent obyekt, indikatorlari va javobgarlik zonalari alohida konseptual hujjatda belgilangan emas. Natijada turli idoralar samaradorlikni o'z sektor ko'rsatkichlari orqali baholaydi, lekin tizimli zaifliklarning yig'ma xavfi yetarlicha ko'rinmaydi.

Ikkinchi cheklov - hududiy va guruhlararo nomutanosibliklarni xavfsizlik masalasi sifatida baholash mexanizmlarining sustligidir. Kambag'allik, bandlik, tibbiy xizmatlar sifati, maktabgacha ta'lim qamrovi yoki nogironligi bo'lgan shaxslar uchun xizmatlar hududlar kesimida farq qilishi mumkin. Ijtimoiy xavfsizlik yondashuvi bu farqlarni faqat rivojlanish muammosi emas, balki ijtimoiy barqarorlik va ishonchga ta'sir qiluvchi omil sifatida ham ko'radi.

Uchinchi cheklov - mehnat migratsiyasi bilan bog'liq zaifliklardir. Chet elda ishlayotgan fuqarolar ko'pincha milliy ijtimoiy himoya tizimlari va mezbon davlatdagi mehnat kafolatlari o'rtasidagi "bo'shliq"da qoladi. Shu bois xavfsiz

migratsiya, qaytgan migrantlarni reintegratsiya qilish va transmilliy ijtimoiy kafolatlar ijtimoiy xavfsizlikning alohida yo'nalishi bo'lishi lozim.

To'rtinchi cheklov - jamoatchilik va ekspert monitoringning institutsional chuqurligi bilan bog'liq. Raqamli monitoring tizimlari davlat boshqaruvi intizomini oshiradi, biroq ijtimoiy xavfsizlikda faqat "yuqoridan pastga" nazorat yetarli emas. Mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, kasaba uyushmalari, akademik institutlar va mustaqil ekspertlar indikatorlarni muhokama qilish, ma'lumotlarni talqin qilish va siyosatga qayta aloqa berish jarayoniga tizimli jalb etilishi lozim. "Xavfsizlik asoslari" darsligida ham fuqarolik jamiyati institutlari "Inson-jamiyat-davlat" konsepsiyasi doirasida xavfsizlikni ta'minlash subyektiga aylanib borayotgani va jamoatchilik nazorati ularning muhim funksiyasi ekani qayd etiladi [14], bu esa ijtimoiy xavfsizlik monitoringida fuqarolik va ekspert ishtirokini institutsionallashtirishga qo'shimcha asos beradi.

Natijada O'zbekistonning hozirgi bosqichini "davlatmarkazli ijtimoiy himoyadan insonmarkazli ijtimoiy xavfsizlikka o'tish" deb tavsiflash mumkin. Bu o'tishning muvaffaqiyati ijtimoiy soha dasturlarining ko'pligiga emas, balki ular yagona xavfsizlik mantiqi, indikatorlar va javobgarlik tizimi asosida bog'lana olishiga bog'liq.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi 1) ijtimoiy xavfsizlik inson xavfsizligining maksimalistik talqinidan kelib chiqadi, biroq uni aniq predmet - ijtimoiy zaifliklar, tengsizlik va munosib hayot shartlarining izdan chiqishi - bilan chegaralash zarur. 2) O'zbekistonda ijtimoiy xavfsizlikning normativ asoslari kuchaymoqda: ijtimoiy davlat tamoyili, inson qadri g'oyasi va "O'zbekiston - 2030" strategiyasining indikatorli boshqaruvi bunga asos yaratadi. 3) asosiy muammo mazkur elementlarning yagona konseptual, institutsional va monitoring ramkasida yetarlicha birlashtirilmaganidir.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy xavfsizlik konsepsiyasi"ni ishlab chiqish maqsadga muvofiq; unda himoya obyekt, asosiy tahdidlar, indikatorlar, mas'ul idoralar va jamoatchilik ishtiroki alohida belgilanadi.

Ikkinchidan, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi indikatorlari bilan bog'langan milliy ijtimoiy xavfsizlik indeksini ishlab chiqish lozim; indeks kambag'allik, bandlik, sog'liq, ta'lim, uy-joy, migratsiya, nogironlik va hududiy tengsizlik mezonlarini qamrab olishi kerak.

Uchinchidan, ijtimoiy xavfsizlik bo'yicha idoralararo muvofiqlashtirish mexanizmini kuchaytirish zarur. Bunda Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, ta'lim tizimi, mahalla institutlari va mahalliy hokimiyatlar yagona ma'lumotlar arxitekturasi asosida ishlashi muhim.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy xavfsizlikni konseptual rasmiylashtirish O'zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi evolyutsiyasini chuqurlashtiradi. Bu yondashuv ijtimoiy siyosatni faqat yordam yoki taqsimot instrumenti sifatida emas, balki davlat qurilishi, ijtimoiy ishonch va barqaror taraqqiyotning strategik sharti sifatida tushunishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Report 1994. New York: Oxford University Press, 1994. 226 p.
2. Commission on Human Security. Human Security Now. New York: CHS, 2003. 168 p.
3. United Nations General Assembly. Follow-up to paragraph 143 on human security of the 2005 World Summit Outcome: Resolution A/RES/66/290. 10 September 2012.
4. Paris R. Human Security: Paradigm Shift or Hot Air? // International Security. 2001. Vol. 26, No. 2. P. 87-102.
5. Newman E. Human Security and Constructivism // International Studies Perspectives. 2001. Vol. 2, No. 3. P. 239-251.
6. Krause K. Critical Perspectives on Human Security // Martin M., Owen T. (eds.). Routledge Handbook of Human Security. London: Routledge, 2013. P. 76-93.
7. Buzan B., Wæver O., de Wilde J. Security: A New Framework for Analysis. Boulder: Lynne Rienner, 1998. 239 p.
8. Finnemore M., Sikkink K. International Norm Dynamics and Political Change // International Organization. 1998. Vol. 52, No. 4. P. 887-917.
9. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligini va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: O'zbekiston, 2017. 48 b.
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel kuni referendumda qabul qilingan // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/6445145> (murojaat sanasi: 16.06.2026).
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/3107042> (murojaat sanasi: 16.06.2026).
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/5841077> (murojaat sanasi: 16.06.2026).
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/8050769> (murojaat sanasi: 16.06.2026).
14. Boboqulov I.I. va boshqalar. Xavfsizlik asoslari: darslik / mas'ul muharrir M.I. Atayev. Toshkent: Complex Print, 2025. 280 b. ISB